
Vol. 2, No. 1 (2026)
ISSN-L: 3093-9240

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHALARGA IXTISOSLASHGAN
ILMIY JURNAL



FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR
ilmiy-amaliy metodologik jurnal

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
научно-практический и методологический журнал

INTERDISCIPLINARY SCIENTIFIC RESEARCH
scientific-practical and methodological journal



Vol. 2, No. 1 (2026)

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

BOSH MUHARRIR:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

TAHRIRIYAT KENGASHI:
Rejep Uzyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Blinova Ye.E. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Abdullayeva B.S. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ibragimova G.N. – pedagogika fanlari doktori, professor
Mamurov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Filippova O.G. – pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Umarova N.Sh. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ismoilova N.Z. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Abdullayeva D.U. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva N.B. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jabborov X.X. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Akramov M.R. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Tuychieva S.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Gadoyeva M.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Z.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qurbonboyev A.N. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Taniyeva G. M. – tarix fanlari doktori, professor
Davlatova S.T. – tarix fanlari doktori, professor
Qurbonova M. B. – tarix fanlari nomzodi, professor
Turdiyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Maxmudova D.A. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldashev S.R. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Botirova D.B. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Alimova Ye.G. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Джексембаева Г.С. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Qozog‘iston)
Jalilov N.A.– pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Vahobov A.A. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raxmatova M.M. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xalilova R.R. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Bobojonov Sh.U. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sharipov Sh.F. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bo‘tayev J.Sh. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bobojonova F. X. – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:
Xayitov Xayotjon Xikmat o‘g‘li

BUXORONING OILAVIY VA JAMOAVIY MAROSIMLARI (MAHALLIY ERONIYLAR MISOLIDA)

Iroda Kalonova
mustaqil tadqiqotchi (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada Buxoro eroniylarining oilaviy va jamoaviy marosimlari tizimi, ularning mahalliy ijro xususiyatlari hamda yosh avlod tarbiyasidagi o‘rni tarixiy-etnografik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda inson hayotining muhim bosqichlari bo‘lgan farzand tug‘ilishi, ism qo‘yish va bolalik davri bilan bog‘liq urf-odatlar, shuningdek, homilador va ko‘zi yorigan ayollar uchun tayyorlanadigan an’anaviy parhez taomlar - atala turlari va ularning shifobaxsh xususiyatlari batafsil yoritilgan. Maqolada Buxoro eroniylari madaniyatiga singib ketgan saidlar xonadonidagi ism qo‘yish an’analari, ramziy ismlar hamda bola soch olish marosimiga oid dala materiallari tahlil etilib, ushbu marosimlarning jamiyatda ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash va ma’naviy merosni saqlashdagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Buxoro eroniylari, ism qo‘yish an’anasi, qovurma atala, Ashuro oyi, husayniya, marosim.

Аннотация. В данной статье с историко-этнографической точки зрения анализируется система семейных и общинных обрядов Bukhara Iranians, особенности их локального исполнения, а также их роль в воспитании молодого поколения. В исследовании подробно освещаются обычаи, связанные с важнейшими этапами человеческой жизни - рождением ребёнка, наречением имени и периодом детства, а также традиционные диетические блюда, приготовляемые для беременных женщин и рожениц (виды аталы и их целебные свойства). На основе полевых материалов в статье анализируются традиции наречения имён в семьях саидов, символические имена и обряд первой стрижки волос ребёнка, глубоко укоренившиеся в культуре бухарских иранцев. Также раскрывается значение данных обрядов в укреплении социальной солидарности и сохранении духовного наследия общества.

Ключевые слова: бухарские иранцы, традиция наречения имени, ковурма атала, месяц Ашура, хусайния, обряд.

Abstract. This article provides a historical and ethnographic analysis of the system of family and community rituals among the Bukhara Iranians, the

characteristics of their local performance, and their role in the upbringing of the younger generation. The study examines in detail the customs associated with important stages of human life, including childbirth, naming ceremonies, and childhood traditions, as well as traditional dietary dishes prepared for pregnant women and new mothers, such as various types of atala and their medicinal properties. Based on field materials, the article analyzes naming traditions in Sayyid families, symbolic names, and the child's first haircut ritual, all of which are deeply rooted in the culture of the Bukhara Iranians. Furthermore, the article highlights the significance of these rituals in strengthening social solidarity and preserving spiritual heritage within society.

Keywords: Bukhara Iranians, naming tradition, kovurma atala, month of Ashura, husayniyya, ritual.

KIRISH

Marosim umum tomonidan qabul qilingan, ramziy xarakterga ega bo‘lgan hayotiy tadbirdir. Boshqacha qilib aytganda, marosimlar urf-odatlarning barqarorlashgan shaklidir. Urf-odat va marosimlar milliy tarbiyaning qudratli quroli, xalqni yagona ma’naviy jipslikka birlashtiruvchi omil hisoblanadi. Marosimlar orqali tarixiy-etnografik yo‘nalishda muayyan bir millatning ma’naviy dunyosi namoyon bo‘ladi.

Oilaviy marosimlar esa inson hayotining muhim bosqichlarini - tug‘ilish, voyaga yetish, nikoh va o‘limni qamrab olib, shaxsning jamiyatdagi mavqeini belgilaydi hamda oila orqali milliy va ma’naviy qadriyatlarni avloddan avlodga yetkazish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Jamoaviy marosimlar esa butun jamoa yoki mahalla ishtirokida o‘tkazilib, ijtimoiy birdamlik, hamjihatlik va hamkorlikni mustahkamlaydi. Shu bilan birga, ular jamiyatning ma’naviy birligi va madaniy merosini saqlashda muhim ijtimoiy institut vazifasini bajaradi.

Buxoro eroniylarining boy madaniy an’analari ichida oilaviy marosimlar tizimi alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u yosh avlodni tarbiyalashda, ularga ma’naviy qadriyatlarni singdirishda muhim o‘rin tutadi. Bu tizim turli bosqichlardagi hayotiy voqealarni qamrab oladi.

Hayotiy bosqich	Marosim nomi	Qisqacha izoh
1. Yangi hayot boshlanishi	Chaqaloq dunyoga kelishi Ism qo‘yish	Yangidan tug‘ilgan bolaga bag‘ishlangan marosimlar. Ota-ona va

	Chilla davri marosimlari	qarindoshlar uchun shodlik va duo bayrami.
2. Bolalik davri	Beshik to‘y Sunnat to‘yi	Bolaning o‘sishi, jismoniy va ruhiy rivojlanishi bilan bog‘liq marosimlar.
3.O‘smirlik va balog‘at yoshi	Muchal yosh	Har 12 yilda bir keladigan “muchal” yili munosabati bilan nishonlanadigan bayramlar.
4. Yoshlik va oila qurish	Qudachilik Sovchilik Nikoh to‘y Kelin salom	Yoshlarning mustaqil hayotga qadam qo‘yishi va yangi oila qurishi bilan bog‘liq marosimlar.
5. Oilaviy hayot va xotirlash	Bolali bo‘lish munosabati bilan marosimlar Xotira va duo marosimlari	Oila barqarorligini ta’minlovchi va avlodlar xotirasini saqlovchi marosiml

Farzand tug‘ilishi Buxoro eroniylarida ham o‘zbeklardagi kabi juda katta quvonch va muhim voqea sifatida qabul qilinadi. Homilador ayolni tug‘ruqqa tayyorlashga oid maxsus marosimlar va irimlar mavjud bo‘lib, ular kelinning salomatligi hamda bolaning sog‘lig‘ini ta’minlashga qaratilgan. Kelinni asrash va uni qo‘llab-quvvatlash oila a’zolari va jamoa ayollari tomonidan amalga oshiriladi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Homiladorlikning oxirgi davrida ayolning qorni kattalashgan sari tajribali ayollar - odatda yoshi katta onabibilar - qorinini yog‘laydilar. Bu marosimda ular sterillangan paxta yog‘i bilan kelinning qornini yog‘lab, ko‘tarib bog‘laydilar.

Xonadonda homilador ayol borligi haqida xabardor bo‘lgan yaqin qo‘ni-qo‘shnilar, xola va ammalar “oshi bibiyon”da tayyorlangan taomdan o‘rik donalari va sumalakdagi yong‘oqlarni olib kelib topshirishadi. Bundagi maqsad shundan iboratki, tug‘ruq boshlangandan so‘ng kelin ushbu yong‘oqlarni iste’mol qilsa, tug‘ruq og‘riqlarini yengil kechirishi mumkin, deb ishonilgan.

Oy kuni yaqinlashganda kelinni tug‘ruqqa tayyorlash boshlanadi. Qaynona kelinining oy kuni yaqinlashganini bilib, asl sariyog‘da unni qovurib, atala taomini yarim tayyor holga keltirib qo‘yadi. Bu taom sut chaqirishi, to‘yimliligi hamda go‘dakning qornini dam qilmasligi bilan alohida ahamiyatga ega.

Vohada ko‘zi yorigan ayollarga dastlab shirin choy ichirilib, keyin qovurilgan undan tayyorlangan suyuq atala ichirilgan. Bu taomni tayyorlashda quyruq yog‘i, sariyog‘, zig‘ir yog‘i, oq yog‘ va ziravorlardan foydalanilganligi tufayli taom tez hazm bo‘luvchi va quvvatli bo‘lgan. Shuning uchun xalq orasida uni chordori yoki haliloba deb atashgan.

Buxoroda qovurma atala ko‘zi yorigan ayollarning parhez taomi hisoblangan. Etnolog M. Qurbonovaning ta’kidlashicha, bu xildagi taom Navoiy tumani qishloqlarida “yarash atala”, voha tojiklarida esa “atolai zanizoida” deb atalgan. Yarash atalaga tuxum, bodyon, mum (saqich), javz solib pishirilgan. Bo‘shalgan ayol atalasi chaqaloq tug‘ilganidan darak berganligi uchun ham vohada “atala tuqqanning oshi” singari ibora tarqalgan. Sipirma yoki “supurma” atala bug‘doy kepagidan tayyorlangan. Buning uchun kepak uch marta qaynatilib, shirasi dokadan sizib olingan, issiqligida biroz o‘choq devori loyi yoxud kuli yoki merosiy qozon qorasi hamda yog‘siz qatiq qo‘shib, qo‘rquvdan yotib qolgan bemorlarga ichirilgan.

Farzand dunyoga kelgach, ota-ona zimmasidagi majburiyatlardan biri ma’noli va go‘zal ism qo‘yishdir. Ism qo‘yish an’anasiga ko‘ra, yangi tug‘ilgan chaqaloqqa nom qo‘yish va munosib ism tanlash qadimgi davrlardan ota-ona hamda qarindosh-urug‘larning erkin huquqi bo‘lgan. Har bir xalq ism tanlashda o‘z ona tilining so‘z boyligi va imkoniyatlariga tayangan.

Uzoq yillar farzand ko‘rmayotgan oila a’zolari “Ashuro oyi”da husayniya xonalarida imomlar haqqiga duolar qilib, farzand tilab, niyat qilib sham yoqishadi. O‘g‘il farzand tilaganlar Hazrat Ali, Imom Hasan, Imom Husayn, Abul Fazl Abbos, Ali Asg‘ar, Ali Akbar kabi, qiz farzand istaganlar esa Fotimayi Zahro, Zaynab, Ruqiya kabi “Ahli bayt” sohib va sohibalari xotirasini eslab sham yoqishadi.

Shundan so‘ng dunyoga kelmagan bolaga “ramziy ism” qo‘yiladi. Sham egalari “o‘g‘il ko‘rsam Ali Akbar, qiz ko‘rsam ismini Ruqiya qo‘yaman”, deb niyat qilishadi. Bu tilaklari amalga oshishiga ular chin dildan ishonishadi. Farzand dunyoga kelgach esa, ular niyat qilgan “ramziy ismlar” qo‘yiladi. Orzusiga yetgan farzandtalablar imkoniyatlari darajasida husayniya xonalariga is, sombo‘sa, Hazrati Ali Abbos kulchasi, halvalar, turli xil shirinliklar va yeguliklar olib kelib tarqatishadi.

Buxoro eroniylarida tug‘ilgan chaqaloqning sochi bir yoshga yetmaguncha olinmaydi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad qanchalik soch olinmay, uzun bo‘lsa bolaning umri ham uzun bo‘ladi, singari tushuncha va tasavvurlarga ishonilgan. Chaqaloq yoshidan o‘tgach, yoshi ulug‘ bobo-bibilar, ya’ni go‘dakni ismini qo‘ygan kishi, sochiga “qaychi urib berishadi”[2].

Muhammad alayhisallomning qizlari Fotima va Ali ibn Abu Tolibdan tarqalgan avlod “saidlar” deb ataladi[3]. Saidlar, kelib chiqishi fors tojik bo‘lmasalarda, ular allaqachon Buxoro eroniylari bilan qorishib ketishgan. Buxoro eroniylarni ismlariga e’tibor qaratganda ularning saidlar oilasi vakillaridan ekanliklari ham ma’lum bo‘ladi. Saidlarning xonadonida o‘g‘il farzand tug‘ilsa “said”, qiz farzand tug‘ilsa isimiga “begim” qo‘shib aytiladi. Said Huseyn, Said Murtazo, Said Komil, Said Ja’far, Munirabegim, Muharrambegim, Hamidabegim, Ruqiyabegim, Zaxrobegim deb murojaat qilinadi.

Hozirgi kunda ayol tomondan, saidzodalarga borib taqaladigan oilada o‘g‘il farzand dunyoga kelsa “mirzo”, qiz farzandga “sulton” nisbalari ismlariga qo‘shib aytilishi an’anasiga e’tibor berishadi. Masalan, Mirkamol, Bobur mirzo, Sattor mirzo, Muslima sulton, Sakina sulton, Saida sulton[4].

TAHLIL VA NATIJALAR

Buxoro eroniylari azaldan bolaning sog‘lom o‘sishi, uzoq yashashi hamda kelgusida baxtli bo‘lishini unga qo‘yiladigan ism bilan bog‘lashadi. Xalqimizda farzandga muvaffaqiyatli va to‘g‘ri tanlangan ism, berilgan nom uning taqdirini o‘zida mujassam qiladi, “kishi o‘z ismiga o‘xshaydi”, deb ishonishadi. Xalqimiz orasida “ism - insonning ziynati”, “go‘zal ism - yarim rizq”, “ismi jismiga monand” singari naqllar bekorga yaratilmagan. Hadisi shariflarda ota-onaning farzandi oldidagi uch muhim burchidan biri - chiroyli ism tanlash ekani alohida ta’kidlanadi. Shuning uchun ham kishi farzandi uchun to‘g‘ri va ma’noli ism tanlashi o‘ta muhim, e’tibor bilan yondashilishi shart bo‘lgan masala sifatida qaraladi.

XULOSA

Marosim va urf-odatlar har bir xalqning ma’naviy dunyosini, tarixiy-etnografik qiyofasini namoyon etuvchi hamda jamiyatda ijtimoiy birdamlikni ta’minlovchi muhim institut hisoblanadi. Buxoro eroniylarining madaniy merosida ham inson hayotining turli bosqichlari - tug‘ilish, bolalik, balog‘at, oila qurish va xotirlash bilan bog‘liq oilaviy marosimlar tizimi o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lib, yosh avlodni ma’naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda yetakchi o‘rin tutadi.

[2] Дала ёзувлари. Бухоро шаҳри, Жўйбор маҳалласи. 2016 йил, сентябрь.
[3] Islom ensiklopediyasi. - Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004. – B.27.
[4] Дала ёзувлари. Бухоро шаҳри. 2023 йил, ноябрь.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Yo‘ldosheva S. Xalq urf-odatlari va an’analari. - Toshkent: Ijod dunyosi, 2003. - B.9.
2. Jumaev A., Qurbonova M. Buxoro etnografisidan lavhalar. - Buxoro, 2006. - B.8.
3. Qurbonova M.B. Buxoro vohasi o‘zbek va tojiklarining an’anaviy taomlari: tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. - Toshkent, 1994.
4. Begmatov E.A. O‘zbek ismlari ma’nosi. - Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007. - B.176.
5. Dala yozuvlari. Buxoro shahri, Jo‘ybor mahallasi. 2016 yil, sentyabr.
6. Islom ensiklopediyasi. - Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004. - B.27.
7. Dala yozuvlari. Buxoro shahri. 2023 yil, noyabr.

MUNDARIJA

UYUSHMAGAN YOSHLAR VA ULARNING MUAMMOLARI Atabayeva Nargis Batirovna	**4**
TURLI YOSH DAVRLARIDAGI SHAXSLARDA O‘ZINI O‘ZI FAOLLASHTIRISH VA EMOTSIONAL SOHA O‘RTASIDAGI ALOQADORLIKLAR Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o‘g‘li	**25**
O‘ZBEK VA QIRG‘IZ QIZLARINI ETNIK STEREOTIPLARI VA IJTIMOIY USTANOVKALARINI ILMIY TADQIQ ETISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI Djuxonova Noxida Xayotjonovna	**33**
ZAMONAVIY SHIFOKORLAR PROFESSIONAL KARERASIDA PSIXOLOGIK OMILLARNING TA’SIRI Arziqulov O‘tkirbek Maxammatovich	**43**
KIMYOVIY ADDIKTATSIYALARDA OILAVIY MUHITNING PSIXOLOGIK AHAMIYATI Mirashirova Nargiza Anvarovna., Raxmatova Zulxumor Alimovna	**50**
TYUTORLARNING BOSHQARUV USLUBLARI VA ULARNING TA’LIM SAMARADORLIGIGA TA’SIRI Alijonov Nurbek Ulug‘bek o‘g‘li	**56**
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJODIY TAFAKKUR RIVOJLANISHINING JINSIY XUSUSIYATLARI Rajabov Murodil Jumaboyevich., Yuldasheva Shoxista Tojialiyevna	**70**
TA’LIM MUHITIDA O‘QUVCHI SHAXSI XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK USULLARI Soliyev Farxodjon Sodiqovich., Akbarova Nigora Axmadjonovna	**78**

MUNDARIJA

IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB O‘QUVCHILARIDA KASBIY O‘ZINI-O‘ZI BELGILASH: MOTIVATSION VA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR TAHLILI Mo‘minov Davronjon Marifjon o‘g‘li	**92**
O‘ZBEK VA RUS QIZLARINI OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLARINI AMALIY O‘RGANILISHI Usmonova Nargiza Raximjonovna	**102**
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ Мирзажонова Элеонора Топволдиевна	**110**
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR RUHIY RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR TAHLILI Z.O.Abdullayeva	**117**
HARBIY FAOLIYATDA ZAMONAVIY STRESS OMILLARINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI Abdumalikova Iroda Abdulaziz qizi	**125**
PSIXOLOGIK BARQARORLIK VA MOLIYAVIY STRESS MUAMMOSINING ILMIY TADQIQ ETILGANLIK DARAJASI Sotvoldiyeva Nargiza Abdukarimjon qizi	**136**
КОРРЕЛЯЦИЯ ИНФОРМАЦИОННОГО И ТЕМПЕРАМЕНТНОГО КРИТЕРИЕВ ВЕРТНОСТЕЙ В СФЕРЕ КОГНИТИВНОЙ СОЦИОНИКИ Туллекова Карина Сергеевна	**143**
TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDA IJTIMOIY-PEDAGOGIK MUAMMOLARNING SHAKLLANISH OMILLARI VA BARTARAF ETISH YO‘LLARI Mirzayeva Faroxat Odiljonovna	**157**

MUNDARIJA

MURAKKAB BICHIMDAGI USTKI KIYIMLARNI MODELLASHTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI Sattorova Ra’no Abdunazar qizi., Sindarova Shoxista Maxammatovna	**166**
HARBIY TA’LIM MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI Sotvoldiyev Abdulhoshim Yuldashovich	**173**
HARBIY TA’LIM FAKULTETI TALABALARIDA TOLERANTLIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI Qarshiev Azamat Raxmonovich	**177**
INTERFAOL TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHDA RAQAMLI INFRATUZILMANING ROLI VA AHAMIYATI Kenjayev Anvar Sattorovich., Kobilov Nozimjon Mingboyevich	**183**
TA’LIM TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA CHAQIRIQQACHA HARBIY TA’LIM TALABALARINI O‘QUV-BILUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH Kobilov Nozimjon Mingboyevich., Kenjayev Anvar Sattorovich	**189**
O‘ZBEKISTONDA BAG‘RIKENGLIK SIYOSATINI YURITISHDA ETNOTURIZMNING O‘RNI Shavkat Bobojonov	**194**
BUXORONING OILAVIY VA JAMOAVIY MAROSIMLARI (MAHALLIY ERONIYLAR MISOLIDA) Iroda Kalonova	**198**
ELLIPTIK GAPLARNING STILISTIK MAQOMI Rasulov Zubaydullo Izomovich	**204**

MUNDARIJA

PRAGMATIC AND COGNITIVE ANALYSIS OF CONCEPT "PEACE" IN POLITICAL SPEECH Rakhmatova Mehriniso Musinovna., Rakhmonova Jasmina Anvarovna	**209**
TIL EVOLYUTSIYASIDA O'ZGARUVCHANLIK VA TEJAMKORLIK PRINSIPLARI Qobilova Nargiza Sulaymonovna	**215**
ZAMONAVIY INTERNET-MULOQOTDA LINGVOMADANIY BIRLIKLAR FENOMENI Jalolova Nigina Zavqiddin qizi	**224**
DIDAKTIK O'YINLARNING ONA TILI TA'LIMIDAGI O'RNI Kamolova Nilufar Saxibovna	**228**
SAVOD O'RGATISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH G'iyosova O'g'iloy Sultonovna	**232**

Materiallar ko‘chirib bosilganda **“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar”** jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart.

***

Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.
Ilmiy maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqiladi. Tahririyat a’zolarining jurnal ruknlariga mos kelmagan, ko‘rsatilgan talablarga mos bo‘lmagan maqolalarni nashr qilmaslik huquqi bor.

***

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” jurnali 05.05.2026-yildan O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy litsenziya asosida faoliyat yuritadi.

***

Yuborilgan maqolalarning barchasi “Antiplagiat” tizimida tekshiriladi.
Jurnalda nashr etilgan materiallar va ma’lumotlarning to‘g‘riligiga mualliflar mas’ul.

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” ilmiy-amaliy metodologik jurnali barcha ta’lim muassasalari va ilmiy izlanuvchilarni hamkorlikka chorlaydi.

Muassis: “Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ
Tahririyat manzili: Toshkent shahar Sergili tumani Yangi Bunyodobod MFY 8-uy
https://fanlararotadqiqotlar.uz/

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI
AXBOROTLASHTIRISH VA TELEKOMMUNIKASIYALAR SOHASIDA NAZORAT INSPEKSIYASI

ГУВОҲНОМА

№1564147 Фаол

"FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Оммавий ахборот воситаси давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисидаги гувоҳнома

ЛИЦЕНЗИЯ РЕЕСТРИ БЎЙИЧА ТАРТИБ РАҚАМИ
C-5669890

СТИР (СОЛИҚ ТЎЛОВЧИНИНГ ИДЕНТИФИКАЦИОН РАҚАМИ)
312386344

АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ
05.05.2026дан - - чексиз

ЖОЙЛАШГАН МАНЗИЛИ (ПОЧТА МАНЗИЛИ)
Тошкент шаҳри, Сирғали тумани, Янги Бунёдобод МФЙ, Сергели 6а мавзеси, 8-уй, 148-хонадон

ВАКОЛАТЛИ ОРГАН
Ўзбекистон Республикаси Рақамли технологиялар вазирлиги ҳузуридаги Ахборотлаштириш ва телекоммуникациялар соҳасида назорат инспекцияси

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA

Гувоҳнома **№1564147**

Faoliyat turi

Оммавий ахборот воситаси сифатида фаолиятни амалга ошириш

Qo'shimcha ma'lumotlar

ҚЎШИМЧА МАЪЛУМОТЛАР

Оммавий ахборот воситасининг номи	Fanlararo ilmiy tadqiqotlar
Оммавий ахборот воситасининг тили	o'zbek, rus va ingliz tili
Оммавий ахборот воситасининг тури	Журнал

ТАРҚАТИЛИШ ҲУДУДИ ВА ШАКЛИ

Тарқатилиш ҳудуди ва шакли	Республика миқёсида
Viloyat	
Тарқатилиш шакли	Онлайн

License SYSTEM

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA